

KORXONA VA TASHKILOTLARDA HISOB SIYOSATINI YURITISH HAMDA KORXONA ICHKI NAZORAT TIZIMINI O'RGANISH.

Turdialiyeva Otikaxon Umidjon qizi
Farg'ona Davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti
Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo'nalishi
4-kurs talabasi.

Ilmiy rahbar: Farg'ona davlat universiteti
o'qituvchisi Eminchayev Baxodirjon Sadikovich

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada byudjet tashkilotlarida hisob siyosatini yuritish masalalari hamda buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish haqida fikr-mulohazalar bayon etildi.

Kalit so'zlar: Hisob, buxgalteriya, moliya, subyekt, tamoyil, soliq, byudjet, korxona, tashkilot, farmon.

IMPLEMENTATION OF ACCOUNTING POLICIES IN ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS AND STUDY OF THE ENTERPRISE'S INTERNAL CONTROL SYSTEM.

ABSTRACT : This article presents considerations on the issues of maintaining accounting policies in budgetary organizations and the proper organization of accounting..

Keywords: Accounting, finance, subject, principle, tax, budget, enterprise, organization, decree.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet tashkilotlarda buxgalteriya hisob siyosatini to'g'ri tashkil qilish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Korxona va tashkilotlarda buxgalteriya hisobi sodir bo'layotgan xo'jalik jarayoni hamda muommolarini kuzatib va qayd etib qolmasdan, ishlab chiqarish rejasining bajarilishi ustidan tekshiruvni amalga oshira borib, rejalashtirish, nazorat qilish va iqtisodiyotni boshqarish ishida asosiy funktsiyani bajaradi. Shu boisdan ham, hisob ishlarini tashkil qilish masalalariga katta e'tibor qaratiladi. Hozirgi kunda buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil qilishga

qo'yilgan eng asosiy talab bu - uning kam xarajatli va sodda bo'lishidir. Korxonada hisob ishlari ana shunday tashkil etilgandagina, buxgalteriya hisobi yuqori samaraga hamda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Har bir korxonada tashkil etilgan buxgalteriya hisobi xo'jalik faoliyati jarayonida sodir bo'layotgan xo'jalik muomalalarini uzluksiz kuzatish va uning natijalarini son ko'rsatkichlarida ifodalash, keyin ularni yoppasiga maxsus hujjatlarda aks ettirishni ta'minlash lozim. Shu bilan birgalikda, korxona biznes-rejasini va kelgusidagi strategik dasturlarini tuzishda kerakli ma'lumotlar bilan ta'minlashi va ularning bajarilishi ustidan amaliy ravishda nazorat olib borishi kerak.

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobi bo'yicha umumiy rahbarlik vazifasi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining buxgalteriya hisobi va auditi uslubi boshqarmasi zimmasiga yuklatilgan. Bu boshqarma dastlabki hisob masalalari bo'yicha xalq xo'jaligi tarmoqlariga umumiy rahbarlik qilib, buxgalteriya hisobi bo'yicha kadrlar tayyorlash va ular malakasini oshirish bo'yicha ish olib boradi hamda dastlabki hisobning tipik shakllarini ishlab chiqib, nashr qildiradi, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun majburiy bo'lgan hisob va hisobot masalalari bo'yicha yo'riqnoma, uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqadi.

Korxonalarda hisob siyosatini yuritishning ahamiyati. Keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan ulkan iqtisodiy o'zgarishlar Respublikamiz hisob tizimini ham o'z ishiga qamrab olmoqda. Bunga misol etib buxgalteriya hisobining milliy standartlarining amaliyotga tatbiq etilayotganligini ko'rsatish mumkin. Ayniqsa mustaqillik yillarida buxgalteriya hisobining rivojlanishiga nazar tashlar ekanmiz, unda uslubiy va tashkiliy jihatdan katta o'zgarishlar ro'y berganligini sezish mumkin. Buxgalteriya hisobi yangi tizimining shakllanishiga eng avvalo mamlakatimizda dunyoning boshqa mamlakatlari bilan olib borayotgan o'zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarining ahamiyatini alohida takidlash zarur. Chunki ushbu iqtisodiy munosabatlarning bevosita ta'siri ostida mamlakatimizda amal qilinayotgan qonunlar va korxonalarning moliyaviy faoliyatini tartibga soluvchi

me'yoriy hujjatlarni qayta ko'rib chiqishga va ularning aksariyatini batamom yangidan yaratishga to'g'ri kelmoqda.

Mamlakatimizda buxgalteriya hisobining bozor munosabatlari talablari asosida isloh qilishning to'rtta bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan:

1. Buxgalteriya hisobining qonuniy asoslarini yaratish;
- 2.«Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonun asosida buxgalteriya hisobining milliy standartlarini ishlab chiqish;
3. Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;
4. Yuqoridagi qonuniy va me'yoriy hujjatlar asosida korxonalarining ish hujjatlarini, yani korxonalarining hisob siyosatini ishlab chiqish:

Ushbu dastur asosida Respublikamizda buxgalteriya hisobining uslubiy va tashkiliy masalalari bo'yicha ancha ishlar qilindi. Jumladan, «Buxgalteriya hisobi va hisoboti to'g'risida»gi Nizom, «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanishi tartibi to'g'risida»gi Nizom, «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, «Buxgalteriya hisobining milliy standartlari». № 1 sonli «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» № 2, № 3, № 4, № 5, kabi qonuniy va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilib, qabul qilindi.

KORXONANING HISOB SIYOSATI — xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari tomonidan qo'llaniladigan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tuzish bo'yicha qoida va usullar yig'indisi. O'zbekiston Respublikasi hududida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning tashkiliy-uslubiy asosini 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida” gi nizom, o'z tarkibiga 21-sonli Buxgalteriya hisobi milliy standarti “Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma”ni ham qo'shgan holda,

buxgalteriya hisobining milliy standartlari vaboshqa normativ hujjatlar tashkil etadi. Hisobot yili uchun ishlab chiqilgan hisob siyosati korxona rahbari tomonidan tasdiqlangandan so'ng yuridik hujjat maqomiga ega bo'ladi.

Hisob siyosati bu xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlash hamda tuzish uchun foydalaniladigan maxsus tamoyillar, qoidalar va amaliy yondashuvlar to'plami bo'lib, Buxgalteriya hisobining 1-sonli va bunga aloqador bo'lgan boshqa milliy andozalaori talablari asosida tuziladi. Hisob siyosati xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan buxgalteriya hisobini va moliyaviy hisobotlarni tuzish bo'yicha ishlab chiqilgan ichki me'yoriy hujjat bo'lib hisoblanadi. Hisob siyosatida korxona moliya-xo'jalik faoliyati natijalarini hisobda aks ettirishni to'g'ri belgilanganliga va unga rioya qilinishi buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari ishonchliligini ta'minlaydi. Shu boisdan hisob siyosati buxgalteriya hisobi va hisobotlarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning barcha bosqichlarida (auditni rejalashtirishdan to auditorlik xulosasini tuzgunga qadar) muhim hujjat bo'lib hisoblanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan vaqtdan boshlab bozor iqtisodiyoti talablari va moliyaviy hisobotning xalqaro andozalariga muvofiqlashtirish maqsadida buxgalteriya hisobi tizimi bosqichma- bosqich isloh qilib kelinmoqda, ushbu islohotni iqtisodiy, fuqarolik huquqiy sohada yuz berayotgan jarayonlar va buxgalteriya hisobini xalqaro miqyosda uyg'unlashtirish zaruriyatini taqozo etdi.

Ichki nazorat – korxonada buxgalteriya hisobini yuritishni, moliyaviy hisobotlarni tuzishni hamda moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish tizimi bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra ichki nazorat tizimi qo'ydagi maqsadlarni ko'zlab tashkil qilinadi:

1. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar ma'lumotlarini ishonchliligini nazorat qilish va korxona moliya xo'jalik faoliyatini tahlil qilish asosida uning rivojlanish strategik rejasini tuzishga ma'lumotlar tayyorlab berishni;
2. Aktivlarni haqiqiy miqdorlari to'g'risidagi buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini to'g'riligini belgilangan tartiblarda tekshirish amallarini bajarishni;

3. Tashqi audit o'tkazish xarajatlarini qisqartirishni.

O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunida ichki nazorat tizimini tashkil qilish va uni olib borish to'g'risida maxsus talablar yo'q. Shuning uchun auditor ichki nazorat tizimini to'g'ri tashkil qilinganligini o'zini tajribasidan kelib chiqib baholaydi. Ichki nazorat tizimi bir biri bilan bog'liqlikda bo'lgan nazorat muhiti, buxgalteri hisobi tizimi va nazorat amallari kabi tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Nazorat muhiti korxonada ichki nazorat uchun qulay bo'lgan xizmat munosabatlarini ig'indisi bo'lib, nazorat ishlarini olib borishda xodimlar orasidagi munosabatlar va tekshirishlar usullaridan tashkil topadi.

Ichki nazorat tizimini ma'lumotlarini ishonchliligi buxgalteriya apparati xodimlari tomonidan qasddan yoki tasodifan yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlash va baholash bilan belgilanadi. Ishnonchli deb tan olingan ichki nazorat tizimi ma'lumotlari auditorlik hisoboti va xulosasi tuzish uchun asos qilib olinishi mumkin.

Agar audit natijalari ma'lumotlari ichki nazorat tizimi aniqlagan ma'lumotlarga mos kelmasa yoki korxona rahbarida shubxa tug'dirsa, tomonlarning kelishuvi bilan ma'lumotlar betaraf ekspertlar tomonidan ekspertizadan o'tkaziladi. Buning uchun diplomga yoki faoliyat ko'rsatishi uchun litsenziyaga ega bo'lgan betaraf ekspertlar taklif qilinadi. Tekshiruvga ekspertlarni jalb etish auditorning auditorlik xulosasi ma'lumotlarini to'g'riligiga va ishonchliliga bo'lgan mas'uliyatini kamaytiradi. Ichki nazorat tizimini baholashning navbatdagi maqsadi uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdir. Audit tekshiruvlari yakunlanganidan so'ng auditor ichki nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'ydagi takliflar va tavsiyalarni berishi mumkin:

1. Ichki nazorat tizimi xodimlarini vazifalarini taqsimlash bo'yicha;

2. Korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatlarida sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonlarni huquqiyligini tekshirish, hujjatlar bilan rasmiylashtirish, buxgalteriya hisobida aks ettirish hamda korxonaning barcha resurslarini saqlanishi va ulardan foydalanishni nazorat qilish bo'yicha;

3. Ichki nazoratni tashkillash shakillari va amalga oshirish usullarini takomillashtirish bo'yicha;

4. Korxona buxgalteriya aparati xodimlarining buxgalteriya yozuvlarini qalbakilashtirishi bo'yicha ataylab qilgan xatolarini topish yoki mansabdor shaxslarning tovlamachilik harakatlarini aniqlash usullari va boshqa masalalar bo'yicha. Berilgan takliflarni qabul qilishni va ularga rioya qilishni yoki qilmaslikni mijozning o'zi hal etadi.

Hozirgi real boozor iqtisodiyotida buxgalteriya hisobi faqat hisob yuritish siyosati va statistika vazifasini bajarib qolmasdan, balki manfaatdor tomonlarga rahbari, tashqi investorlar va foydalanuvchilarga asosan moliyaviy axborotga asoslanadigan samarali axborot tizimi zarurligi natijasida kelib chiqadi. Tahlil korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini yaxshilash maqsadida qaror qabul qilish uchun ilgari qabul qilingan strategiya va taktikasini baholash hamda tahlil qilish jarayonidir. Tahlil natijasida korxonada boy berilgan imkoniyatlar hisoblab chiqiladi, mavjud rezervlar hajmi belgilanadi, uskunarlar, mehnat va xomashyo resurslaridan foydalanish darajasi oshadi, shuningdek, moddiy resurslar bilan uzluksiz ta'minlash yo'lga qo'yiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, har bir byudjet tashkilotlari hisobotda aks ettirilgan joriy davr uchun va har bir oldingi davr uchun moliyaviy hisobotning o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan qismini har bir moddalar qatoriga kiritilgan tuzatishlar summasini amalda imkoni ochiq ko'rsatishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida turuvchi tashkilotlarning byudjetdan ajratilgan mablag'lar bo'yicha xarajatlar smetasini va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini tuzish, ko'rib chiqish, tasdiqlash va ro'yxatdan o'tkazish, shuningdek, shtatlar jadvalini tuzish va ro'yxatdan o'tkazish tartibi bilan belgilanganligini hisbga olsak shaffof tizimlashtirishga erishamiz.

REFERENCES

1. Vahobov A., Ibragimov A., Ishonqulov N. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. T.: "Sharq" NMAK, 2005-y.

2. Toshmamatov N., Kamolov X., Nosirov I., Toshmamatov S. AUDIT: o'quv qo'llanma. Andijon – 2018, – 114 b.
3. N. Toshmamatov, X. Kamolov, I. Nosirov, S. Toshmamatov "AUDIT-2019"
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016- yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli ma'ruzasi. Toshkent, 2017-yil 14-yanvar. – 166 b.